

## O‘ZBEKISTONDAGI ETNIK OZCHILIKLAR TARIXI (BOLTIQBO‘YILIKLAR MISOLIDA)

**Ravshan XOMITOV**

dotsent

tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

[xamitovravshan7@gmail.com](mailto:xamitovravshan7@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Maqolada ko‘pmillatli O‘zbekistonda boltiqbo‘yiliklarning diasporasi tarixi arxiv hujjatlari, tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib tadqiq qilingan va ushbu xalqlarning dastlabki ko‘chib kelish davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan hayoti ko‘rsatib berilgan. Unda o‘zbek xalqining bag‘rikengligi hamda boltiqbo‘yiliklar bilan o‘zaro munosabati yoritilib, bu omillar hozirgi sharoitda “xalq diplomatiya”si sifatida davlatlarning aloqalarida muhim o‘rin egallagani alohida ta’kidlangan.

**Tayanch so‘zlar:** bag‘rikenglik, boltiqbo‘yilik, diaspora, millatlararo munosabatlar, etnik ozchilik, ko‘chirish, migratsiya, deportatsiya.

## ИСТОРИЯ ЭТНИЧЕСКИХ МЕНЬШИНСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ БАЛТИЙСКИХ НАРОДОВ)

**Равшан ХОМИТОВ**

доцент

доктор философии по (PhD) исторических науках

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

[xamitovravshan7@gmail.com](mailto:xamitovravshan7@gmail.com)

### **Аннотация**

В данной статье на основе архивных документов и результатов исследований рассматривается история балтийской диаспоры в многонациональном Узбекистане. Описывается жизнь этих народов с момента их первоначальной переселения до наших дней. Приводится вывод о толерантности узбекского народа и его взаимоотношениях с балтийцами, а также о том, что в современных условиях эти факторы играют важную роль в отношениях государств как «народная дипломатия».

**Ключевые слова:** толерантность, балтийцы, диаспора, межнациональные отношения, этнические меньшинства, переселение, миграция, депортация.

Ma'lumki, O‘zbekiston polietnik davlatlar tarkibida bo‘lib, bu jarayonning shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Shu bilan birga mamlakatdagi har bir etnik ozchilik o‘z o‘tmishiga ham egadir. Binobarin, o‘zbeklar va boltiqbo‘yiliklar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari tarixning o‘rta asrlaridan boshlangani

manbalardan ma'lum. Xususan, shu davrlarda shimoliy savdo yo'llari orqali ma'lum ma'noda munosabatlarga kirishilgan. Biroq xalqlarning taqdiridagi bog'liqlik XIX asrning 60-yillariga kelib Rossiya imperiyasi, so'ngra 1918-yildan sovet Rossiyasining ta'siri ostida yuz bergan. Demak, shu jihatlarni o'rganish dolzarbdir.

Xususan, tarixchi olimlardan G.Xidoyatov, R.Murtazayeva, D.Babajonova, A.Rasulov, A.Rahmonqulova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan O'zbekistonda ko'p millatlilikning shakllanish jarayonlari, millatlararo totuvlik masalasi, aholini ko'chirib siyosati bilan bog'liq asarlar nashr etilgan [3]. Ularda O'zbekistonga 130 dan ortiq millat va elatlarning ko'chib kelishiga sabab va omillar tarixiylik nuqtai nazardan tadqiq qilingan bo'lib, bu hududlarga xalqlarning ko'chib kelishiga dastlab mintaqaning joylashgan o'rni muhim ahamiyat kasb etgani, so'ngra XIX asrning o'rtalaridan XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda dastlab Rossiya imperiyasi, undan keyin sobiq ittifoqdagi amaldorlar tomonidan olib borilgan millatlar masalasidagi milliy siyosati natijasida yuzga kelgani aniq manbalar, arxiv materillari va aholini ro'yxatga olish hujjatlari asosida ko'rsatib berilgan. O'rganishlardan shu narsa ma'lum bo'lganki, o'tmishning har bir davr va voqealarida millatlar orasida har qanday subektiv va obektiv omillar yuz bermasin doimo o'zbek xalqining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va o'zaro murosa qilish kabi milliy qadriyatlari o'zini namoyon qilib, millatlar o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar sodir bo'lmaganiga guvoh bo'lish mumkin. Bu esa millatlararo barqarorlikni ta'minlashda "o'zbek modeli"ning asosini tashkil etadi.

O'zbekistondagi Boltiqbo'yi xalqlarining ko'chirilishi va diasporasi tarixini voqealarga asoslanib quyidagicha asosiy bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich, Rossiya imperiyasi davrida boltiqbo'yiliklarning Turkiston o'lkasiga, Buxoro va Xorazm yerlariga ko'chirib keltirilishi 1860–1918-yillarni o'z ichiga oladi. Unda, dastlab ko'chirib keltirilgan asosiy harbiylar bo'lib, navbatdagi bosqichlarda esa aholining barcha tabaqalari olib kelingan. Bu davrda Boltiqbo'yi xalqlarining ko'pchiligi Turkiston o'lkasiga, qisman Buxoro va Xorazmning

Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan hududlariga ko'chirilgan. Ularning dastlab ko'chirib keltirilganlari 1874–1876-yillarda Avliyoota uyezdidagi birinchi rus qishloqlari Qorabolta, Choldevor hududi hamda shahar atrofida yangi bunyod etilgan rus posyolkalariga joylashtirilgan. Navbatdagi qismi 1903–1913-yillar mobaynida Turkiston o'lkasining o'zida tashkil topgan 116 ta rus posyolkasiga joylashtirilgan [2]. Bu xalqlarning ma'lum qismi Chernyaev posyolkasiga ham joylashgan bo'lib, u 1867-yilda hozirgi Toshkent viloyatida barpo etilgan.

Bolتيqbo'yi xalqlarining o'lkada joylashuvi, ularning mashg'uloti, turmushi va oilaviy munosabatlari haqida to'liq ma'lumotlarni aniqlashtirish dastlabki davrda birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq, 1897-yil aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, o'lkada yashovchi latviya, litva, estoniyaliklar Turkiston aholisi tarkibida kamchilikni, ya'ni umumiy aholidan 287 kishini, xususan, erkaklar – 168, ayollar – 119 nafarligi aholini ro'yxatga olish hujjatlarida qayd qilinadi.

Ya'niki, xalqlarni ko'chirish siyosati Rossiya imperiyasi davrida izchil davom ettirildi. Shu yillarda bolتيqbo'yiliklarning mamlakat hududlari bo'ylab ko'chib joylashuvini to'rt davrga ajratish mumkin:

birinchi davr: 1860-yildan Qrim va Samara, O'rta Osiyo hududiga;

ikkinchi davr: 1870-yildan Kavkaz, Stavropol, Kuban guberniyalari, Rossiyaning markaziga, Sibir va O'rta Osiyo hududlariga;

uchinchi davr: 1884–1886-yillarda Kavkaz, Qora dengiz bo'ylari, Sibir, Tver va O'rta Osiyo hududlariga;

to'rtinchi davr: 1900–1917-yillarda Sibir, Tomsk, Tobolsk, Turkiston hududlariga ko'chirilgan [3].

Yuqoridagi har bir davrda xalqlarning ko'chirilishiga oid alohida voqealar mavjud bo'lib, masalan, Birinchi Jahon urushining boshlanishi natijasida, ya'ni 1914-yil sentyabrdan 1915-yil iyun oyigacha O'rta Osiyo hududiga to'rt mingdan ortiq latviya, litva, estoniyaliklar ko'chirib keltirilgan, ularning aksariyati Turkiston hududiga joylashtirilgan. 1916-yilning aprel oyi oxirlaridan ularning ma'lum qismi O'rta Osiyodan tashqariga olib ketilgani [4] haqidagi ma'lumotlar manbalarda saqlanmoqda.

Bu vaqtlarda Turkiston va Buxoro, Xorazm hududlariga ko'chirilgan boltiqbo'yiliklarning hayoti og'ir kechib, bir qator turmush muammolari mavjud bo'lgan. Jumladan, xalqlarning diniy e'tiqod masalalariga alohida e'tibor berilmagan. Ular Turkiston Rim - katolik xayriya jamiyati ishlarida qatnashishiga to'g'ri kelgan [9]. Bu bilan diniy marosimlarini bir e'tiqodda bo'lmasada, boshqa xalqlar bilan birga amalga oshirishga majbur bo'lishgan.

Birgina Toshkent hududi bo'ylab yashagan xalqlarning diniy qarashlariga oid ma'lumotlarga ko'ra: 16 nafar latish erkak, 5 nafar ayol rim-katolikka; 10 nafar erkak, 1 nafar ayol lyuteran e'tiqodiga, reformatorlarning 2 nafari erkak, 5 nafari latish ayoli bo'lgan. Litvaliklardan Rim-katolikka 14 nafar erkak, 3 nafar ayol mansub bo'lgan. Shu millatning lyuteran e'tiqodida 10 nafar erkak, 1 nafar ayoli, reformatorlarning 2 nafar erkagi va 2 nafar ayoli e'tiqod qilgani ma'lum qilingan [11].

Shuningdek, Toshkent hududidagi latishlarning mashg'ulotini tahlil qiladigan bo'lsak, sud va militsiya mahkamasida 3 kishi, qurolli kuchlar safida 5 kishi, tibbiyotda 6 kishi, sanoat sohasida 3 kishi, qishloq xo'jaligida 2 kishi, qurilishda 1 kishi, temir yo'lda 1 kishi, savdoda 1 kishi mehnat qilgan [12].

O'lkada muqim yashagan boltiqbo'yiliklarning bolalari ta'lim olishi uchun esa alohida maktab bo'lmagan. Ular, asosan, rus-tuzem maktablarida o'qigan va rus tilini mukammal bilgan holda, o'z ona tilida ta'lim olib, undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Agar tadqiqotlarni davom ettiradigan bo'lsak, o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan latviya, litva, estoniyaliklarning turmushi va mehnat faoliyati xalqlarning diasporasi uchun muhim hisoblanadi. Xususan, litvalik Chertov Kozimir Aleksandrovich 1915-yilda Xivada suv masalasi bo'yicha mas'ul bo'lgan, 1923-yildan boshlab esa Amudaryo uyezdi hududidagi To'rtko'l viloyati Suv xo'jaligi boshqarmasida boshliq bo'lib ishlagan. Uning o'lka suv xo'jaligiga oid "Qishloq xo'jaligining asosiy tamoyillari" nomli monografiyasi chop etilgan. K.A. Chertovning 1924-yilda sovetlar quriltoyiga Amudaryo viloyatidan delegat bo'lib qatnashgani, uning o'lka siyosiy hayotida faol

bo'lganligini ko'rsatadi [13].

Shuningdek, Zedin Karl 1898-yili Latviyada tug'ilgan bo'lib, 1918-yili Turkiston o'lkasiga ish yuzasidan olib kelingan va shu yerda muqim yashab qolgan [13]. U mehnat faoliyatini Amudaryo uyezdi suv xo'jaligida olib borgan. O'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham faol qatnashgan. Chunki Z.Karl 1919-yil mart oyida sobiq RKP(b) a'zosi bo'lgan.

Shuningdek, millati latish bo'lgan German Ivan Ernestovich 1884-yili tug'ilgan bo'lib, O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan. 1898-yili Litvada tug'ilib, Turkiston o'lkasida yashagan, mutaxassisligi o'qituvchi bo'lgan Tarulis Teodor Terdorovich Toshkentda mahalliy boshqaruv tashkilotida ishlagan. Bu kabi ma'lumotlarni yana davom ettirish mumkin. Eng muhimi, bu xalqlar vakillari qisqa vaqt ichida mahalliy aholi bilan kelishib, o'lka hayotiga ko'nikib ketganlar.

1920-yil Turkiston ASSR ishchi–dehqon inspeksiyasi shtat jadvalida doimiy xodimlar soni 812 nafar bo'lib, ular tarkibida 2 nafar latish bo'lgani ma'lum.

1921-yilda Umumturkiston sovetlar s'ezdida Turkiston hududidan kelgan delegatlar 121 nafar bo'lib, shundan 8 nafari latish millatiga mansub bo'lgan [14]. Toshkent militsiya tizimida ham latish va litvaliklar faoliyat olib borgan bo'lib [15], 1924-yil oxirlarida Toshkentdagi 865 nafar militsionerning 3 nafari latish millatiga mansub bo'lgan.

Shuningdek, o'lka iqtisodiyotida asosiy o'rin tutadigan tashkilotlardan biri Turkiston ASSR savdo-sotiq palatasi tizimida litvaliklar mehnat qilganlar [16], latishlar esa Toshkent tovar birjasida ishlaganlar. Ular orasida shu millatga mansub bo'lgan Milyays Arnold Fritsevich eng faol xodim bo'lgan [16].

Shuningdek, 1887–1916-yillar mobaynida Turkiston o'lkasida pochta, telegraf tizimini qurishda boltoqbo'yilik mutaxassislar qatnashgani ham ma'lum [17]. Turkistonda yangi texnika va texnologiyalar rivojlanishida ularning o'ziga xos xizmatlari bo'lgan. Masalan, o'lkada velosiped, mototsikl, tramvaylar ishlab chiqarilishida latviya va litvalik muhandislar faol ishtirok etganlar. Bu haqda

“Туркестанские ведомости”ning 1914-yil 77-sonida yozilganidek, latishlarning Toshkentda qurgan “Swift” nomli velosipedi Riga va Stokgolmda o‘tkazilgan olimpiadalarda sovrinli o‘rinlarni olgan.

Umuman ularning ko‘chib kelishini shartli uchta davrga bo‘lish mumkin. birinchi davr 1918–1939-yillarni, ikkinchi davr 1941–1945-yillarni, uchinchi davr 1966–1989-yillarni o‘z ichiga oladi. Davrlardagi voqealar tahlil qilinadigan bo‘lsa, 1918–1939-yillar mobaynida o‘lka va Moskvada sodir bo‘lgan voqealar boltiqbo‘yiliklarning Rossiya hududida istiqomat qilgan qismining O‘zbekiston hududiga majburiy ko‘chirib keltirilishiga asos bo‘ldi. Bu haqida 1921-yil 17-sentyabrda bo‘lib o‘tgan Turkiston Kompartiyasi MK Ijroiya byurosining 50-sonli bayonnomasida yozilgani kabi Turk MIQ qoshidagi Millatlar ishlari komissarliklari tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, o‘sha davrda Turkistonda sodir bo‘lgan siyosiy voqealarda shu yerda yashovchi latviya, litva, estoniyaliklar ham faol ishtirok etganlar. Jumladan, 1918-yili Toshkentda latish sotsial-demokratik gruppasi tashkil topgan. U dastlab 40 kishini birlashtirgan bo‘lib, so‘ngra Namangan, Andijon, Qo‘qon gruppalari ham tashkil topgan. Shuningdek, 1918-yili Turkistonda Butunturkiston Kengashi s‘ezdining delegatlari jami 128 ta bo‘lib, uning tarkibida 8 nafar latish bo‘lgan [14]. Navbatdagi shu kabi siyosiy tadbirlarda ham ular faol bo‘lganlar. Biroq, noma‘lum sababga ko‘ra uning faoliyati to‘xtatilgan.

1920-yillarda Toshkent va Sirdaryo hududlarining o‘zida 745 nafar latish va litvalik istiqomat qilgan [5]. Samarqand va Jizzax hududlarida esa 103 nafar latish yashagan, uning 62 nafari erkak, 41 nafari ayol bo‘lgani manbalarda yoziladi. Ulardan 7 nafar erkak, 2 nafar ayoli qishloq hududida qolgan qismi shaharda yashagan.

Shularni inobatga olib, Turkiston Millatlar ishlari xalq komissarligidagi kam sonli millatlar bo‘limida 1922-yil latish sektsiyasi faoliyat ko‘rsatishiga takroriy ruxsat berilgan. Keyinroq, 1922-yil 14-iyulda Turk MIQ Prezidiumining 102-sonli qaroriga ko‘ra, latish sektsiyasi o‘z faoliyatini to‘la to‘xtatadi. Bundan sobiq sovet Rossiyasi amaldorlarining kam sonli millatlarga nisbatan olib borgan milliy

siyosati bir yoqlama ekanligi, faqat “markaz” manfaatlariga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, tarixning bu bosqichida “markaz” tomonidan xalqlarni asossiz ravishda majburiy ko‘chirish siyosati olib borildi. Ko‘plab boltiqbo‘yiliklar O‘zbekiston hududiga ko‘chirib keltirildi. Demak, 1926-yil yakuniga ko‘ra o‘lkaning jami aholisi 4 239 462 kishi bo‘lib, undan 1 014 222 kishi kamsonli aholi tarkibiga kirgan, ular orasida boltiqbo‘yiliklar ham bo‘lgan [18].

Boltiqbo‘yi xalqlarining O‘zbekistonga ko‘chib kelishi tarixida 1941–1945-yillar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu ko‘chirishning ikkinchi davrini o‘z ichiga oladi. Sababi, bu vaqtlarda Ikkinchi Jahon urushining boshlanishi va Boltiqbo‘yi davlatlarida jangovar harakatlarning olib borilishida edi. Natijada, frontorti hudud hisoblangan O‘zbekistonga ko‘plab latviya, litva, estoniyalik oilalar va ularning farzandlari ixtiyoriy ravishda ko‘chirildi. Ko‘chirib keltirilganlarni bag‘rikeng o‘zbek xalqi yaxshi kutib oldi.

Birgina Toshkentga qisqa vaqt ichida mingdan ortiq boltiqbo‘yiliklar ko‘chirib keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari haqida to‘xtalsak, 1885-yilda Latviyada tug‘ilgan Pelekays Yan Vorfolomeyevich Toshkentga 1941-yil 3-dekabrda ko‘chib kelib, “Elektrostanok” zavodida ish boshladi [19]. Shu kuni oliy harbiy pedagogika institutining o‘qituvchi va ishchilari tarkibida 1893-yil tug‘ilgan latish Kartupel Xristofor Anslov ham Toshkentga ko‘chib keldi [20]. Toshkent temir yo‘l boshqarmasining 1941-yilning 5-dekabrda yozilgan ma'lumotnomasida shunday deyiladi: “1920-yil tug‘ilgan millati estoniyalik bo‘lgan Ublik Lidiya Ivanovna Toshkentda istiqomat qiladi” [19]. 1941-yil 8-dekabrda ma'lumotnomada esa Toshkent shahridagi 308-zavod qurilishida 1888-yil tug‘ilgan millati latish Shlos-Larins Karlis Fridrax payvandchi bo‘lib ishlagan. U bilan 1905-yil tug‘ilgan millati latish Vetsis Frits ham bo‘lib, ular birga mehnat qilgan [22]. Toshkent shahar “Krasnaya Zarya” tikuv fabrikasi ishchilari orasida 1899-yil Litvaning Kovna shahrida tug‘ilgan Vin Abram Matveyevich ham bor edi. Shu korxonada latish A.V. Gurko, V.I. Yurshevichlar ham faoliyat olib borgan. Toshkent shahar “Ростсельмаш” zavodining 1941-yil 17-noyabr

buyurig'ida 1889-yil tug'ilgan millati latish bo'lgan Lermontova Olga Ivanovna ishchi bo'lib ishlagan. Uning ikki nafar farzandi bo'lib, turar joyi Toshkent shahridagi 154-maktab binosida bo'lgan. 1942-yil 14-aprelda Toshkentga 1911-yili Latviyada tug'ilgan millati latish Jagot Miler ko'chirib kelinib, shaharning Turkiston ko'chasi 20/7-uyiga joylashtirilgan [20]. Shu sanada 1897-yil Rigada tug'ilgan Ladis Monika ismli latviyalik Toshkent shahar Sedelnikovskiy ko'chasi 67-uyiga joylashtirilib, "Ташкенттекстилмаш"ga ishga olinadi [23].

1983-yil yozida Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi "SSSR 60-yilligi" nomli kolxozda kolxozchi, traktorchi Leoxard Umidov Lakuni uzoq qidiruvdan so'ng topgan. Urush yillarida ko'chirilgan bolalar orasida 11 yoshli eston farzandi Leoxard va uning tug'ishganlari bor edi. Estoniyadan chiqqan eshelondagi bolalarni dushman qo'shinlari o'qqa tutgan, natijada, bir necha bola – Leoxard va uning ukasi Voldemir tirik qolgan. Ular Buxoro viloyatida mahalliy aholi uyiga joylashib, shu yerda muqim yashab qolganligi haqida ma'lumot bor [10]. O'sha davrda ko'chib kelganlarning ahvoli nihoyatda og'ir va ayanchli bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, mahalliy aholi ularga yaqindan yordam ko'rsatib, uy-joy, oziq-ovqat va ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashgan.

Ko'chirilganlarning bolalari ta'lim olishlari uchun 1943-yilning mart oyida Toshkent shahri Qodiriy ko'chasida 7-maktab o'rnida Litvadan keltirilgan bolalar uchun maxsus uy tashkil etilgan. Shu yerda ularni o'qitish uchun Mariya Yakshene boshchiligida maxsus maktab ochilib [24], unda 60 nafardan ortiq o'quvchi qabul qilingan [10]. Xuddi shunday maktab hozirgi Navoiy viloyatidagi 318-maktab o'rnida ham tashkil etilgan. Buxoroda 5-sonli bolalar uyida boltiqbo'yilik farzandlar bo'lgan [6]. Urush yillarida Toshkent shahrining 248-maktabida latish tilida dars o'tiladigan sinflar tashkil etilgan. Uning asosiy o'qituvchilari Vilnyus universitetining professorlaridan iborat bo'lgani arxiv hujjatlarida yozilgan [6]. 1944-yil 4-dekabrda O'zbekiston SSR XKSning "Ko'rlar hamda kar-soqovlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash to'g'risida"gi qarori asosida maktablarda maxsus sinflar tashkil etilgan. Ular orasida boltiqbo'yiliklar ham ta'lim olganlar [8]. O'zbek xalqi og'ir sinov yillarida boltiqbo'yiliklarga nisbatan

do'stona munosabatda bo'lishi natijasida O'zbekiston ularning ikkinchi Vataniga aylandi. Bu davrning yana ahamiyatli jihati shundaki, o'zbeklar va boltiqbo'yiliklar o'rtasidagi do'stlik, ma'naviy hamda siyosiy birlik, uning kuchi va hayotiyliigi front yoqasidan ko'chirib keltirilgan, doimiy yoki vaqtincha boquvchisidan ajralgan bolalarni shaxsiy tarbiyaga olish va ularga o'z otanalaridek har tomonlama g'amxo'rlik qilishda yaqqol ko'rindi.

Shuningdek, 1944-yil 14-sentyabrda Boltiqbo'yidagi Riga, Tallin, Vilnyus shaharlarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda o'zbek o'g'lonlari qahramonlik ko'rsatganlar. Urush ko'plab yo'qotishlar bilan nihoyasiga yetib, mamlakatlar tinch hayot yo'liga o'tdi. O'zbekistonga olib kelingan ba'zi boltiqbo'yiliklar o'z ona vataniga qaytar ekanlar, o'zbeklarga chuqur minnatdorchilik bildirdilar. Masalan, 1945-yil yozida Estoniya radiosida bir so'z yangradi: "O'zbeklar nihoyatda mardonavor ish qildilar, ularning nomi mangu qoladi".

So'nggi yillarda ham xalqlarni O'zbekiston hududiga ko'chirish davom ettirildi. Unga sabab qilib hududlarni qayta tiklash maqsadi ko'rsatildi.

Bu kabi tadbirlar davom ettirilib, 1961–1965-yillar oralig'ida O'zbekistonga Boltiqbo'yi hududidan 8500 kishi ko'chib kelgan, ular asosan ishchi va xizmatchilar edi. Shu yillar oralig'ida esa 10 700 ming kishi O'zbekistondan Boltiqbo'yiga olib ketilgan [7]. Bu o'sha paytlarda olib borilgan milliy siyosatning o'ziga xos usuli edi.

Bu yillarda xalqlarning faoliyatini ko'radigan bo'lsak, O'zbekistonda ilm-fan, san'at va madaniyat, texnika, tibbiyotning rivojlanishida Boltiqbo'yi xalqlarining alohida mehnati va o'rni bor edi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, 1962-yili O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida band bo'lganlardan 27 071 nafarga yaqini boshqa millat vakillari bo'lib, ularning tarkibida boltiqbo'yiliklar ham bo'lgan [1].

O'tgan asrning o'rtalarida O'zbekistonda elektrotexnika sohasining rivojlanishi va aholining ehtiyojlarini ta'minlash uchun radio va radio priyomniklarning 23,7 foizi latishlar tomonidan qurib berilgan.

Tuyamo‘yin suv ombori qurilishida boltiqbo‘yilik mutaxassislar ham xizmat qilgan. Jumladan, Uchqo‘rg‘on, Norin GESlar qurilishida eston va litvalik quruvchilar qatnashganlar.

Shuningdek, 1962-yili Toshkentda sport sohasida sobiq Ittifoq mamlakatlari o‘rtasida velopoyga bo‘lib o‘tdi. Unda Marg‘ilon ipakchilik kombinatining vakili Danguole Danilovayte qatnashgan, u kelib chiqishi Kaunas shahridan bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonni o‘zining vatani deb bilib, O‘zbekiston nomidan qatnashdi.

Shu yillarda litvaliklar Toshkentdan lak–. bo‘yoq, ekskavator zavodining mahsulotlari hamda kabel, Andijondan dizel nasosini, Qo‘qondan transformator mahsulotini va mamlakatda yetishtirilgan paxtani xarid qilgan. O‘zbekistonga radiotovar, televizor, magnitofon, muzlatkich, mebel, to‘quv va tikuvchilik uskunalari hamda baliq mahsulotlarini yetkazib bergan.

Xalqlarni ko‘chirishdagi uchinchi davrining boshlanish sanasi 1966-yil hisoblanadi. Bu davrda boltiqbo‘yiliklarning O‘zbekistonga ko‘chib kelishining sababi – Toshkentda tabiiy ofat, ya'ni zilzilaning sodir bo‘lishi edi. Mahalliy aholiga urush yillarida ko‘rsatgan beg‘araz yordami va uzoq tarixiy yillar davomida shakllangan do‘stona aloqalari tufayli, ular o‘z ixtiyorlari bilan Toshkentga ko‘chib kelib shaharni qayta tiklashda jonbozlik ko‘rsatgan. Shuningdek, Toshkent shahar aholisining Boltiqbo‘yi shaharlariga ko‘chib borib, yashashlari uchun ham ko‘mak berganlar. Bu borada o‘sha yillarda Latviya KPSning birinchi kotibi bo‘lib ishlagan A.Vossning quyidagi so‘zlari diqqatga sazovor: “O‘zbeklar juda bag‘rikeng va mehmondo‘st, ayni vaqtda latishlar uchun qadrdondirlar. 1966-yil bahor va yozida juda ko‘p latish ishchilari, quruvchilar Toshkentni qayta qurishda beg‘araz yordam ko‘rsatdilar. “Latviya” yordam poyezdi 1966-yilning iyunidan 1967-yilning sentyabrigacha 280 o‘rinli bolalar uyi, uchta aholi turar joy majmuasini qurib, shaharliklarga topshirdilar. Bu xizmatlari uchun 23 nafar latviyalik quruvchilar maqtov yorlig‘i va 143 nafari “Toshkent quruvchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar. Ustalar “Yulduz” tikuvchilik fabrikasining binosini to‘lig‘icha qurib topshirdilar. Shuningdek, o‘zbeklar latishlar

do'stlashuvi yanada mustahkamlanib, quruvchilarga o'zbeklar tomonidan madaniy kechalar, ikkala xalqlarni yaqinlashtiruvchi tadbirlar tashkil etilgani bizlarni quvontirdi". Toshkent qurilishida jonbozlik ko'rsatgan Roberto Gasisom, yuk ko'taruvchi Yakisa Velunasala qatorida bo'yoqchi Karolis Shukyavichus, duradgor Alfansos Misyavichus, yuk ko'taruvchi Vitas Mitskus, haydovchi Dmitriy Dizanov va Alchis Petrubavichus, qurilish boshlig'i Romantik Yuzenas, arxitektor Litis Tishkuslarning xizmatlari beqiyos bo'lgan [25].

1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etishda litvaliklar ham do'stlik va beg'araz yordamlarini ayamaganlar. O'sha yillari Litva MK birinchi kotibi A. Snehkusning: "Litvalik juda ko'p farzandlarni Ikkinchi Jahon urushida o'z bag'riga olgan non shahri va do'st Toshkentning og'ir kunlarida juda ko'p litvaliklar ixtiyoriy ravishda Toshkentga ketishdi. Ular qisqa davr ichidan 10 ming kvadrat metrli uy-joylarni qurib bitkazdilar", – degan, so'zlari buning isbotidir. Ulardan qurilish boshlig'i Kudryavtsev Fedor, bo'yoqchi Yankunas Llfredas, bosh muhandis Yurgelyonis Ionaslarning xizmatlari katta bo'lgan. Litvalik ish boshqaruvchi R.Gasis, bo'yoqchi G.Batur, g'isht teruvchi V.Valinovich, avtoko'taruvchi V.Mitskus, beton ta'mirlovchilar boshlig'i E.Petrashavichyus, haydovchi A.Gorkusha, oshxona boshlig'i M.Valanchyute va boshqalar "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan quruvchi" unvoniga sazovor bo'lganlar.

1966-yili estoniyaliklar ham Toshkentdagi qurilishda ishtirok etib, qisqa fursat ichida 5 600 kvadrat metr uy-joy va 280 o'rinli bolalar bog'chasini qurib topshirishgan. Unda faollik ko'rsatgan quruvchilardan bo'yoqchilar Vilbyaste Malle va Begishev Enver, tom yopuvchi Beletskiy Dmitriy, g'isht teruvchi Reyer Voldemar, Ialmits Mixail va boshqalar ordenlar bilan taqdirlanganlar. O'sha vaqtdagi Latviya Davlat qurilish komitetining rahbari Ya.F.Rubins ommaviy axborot vositalarining muxbirlariga bergan intervyusida: "...biz toshkentliklarga albatta ko'mak berishimiz shart. May – noyabr oylarida biz shaharda 2 700 kv maydonda uylarni quramiz, bu ishni yanada kuchaytirib davom ettiramiz. Dastlab 300 kishilik quruvchilarni biz Toshkentga yubordik", – degan edi.

Shunisi ahamiyatliki, bu davrda O'zbekiston hududiga kelgan ko'plab

latviya, litva va estoniyaliklar bu hududda muqim yashab qoldilar. Ular mamlakatimiz ilm-fani, san'ati va texnikasi rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. Masalan, 1966-yili Toshkent rassomchilik va san'at institutida vilnyuslik mashhur rassom Irena va Yuozas Lipaslar o'qituvchilik qilgani, latviyalik Monfere Esse-Ezinge Toshkent shahridagi tibbiyot sohasining malakali vakili bo'lgani haqidagi ma'lumotlarni hujjatlardan bilish mumkin.

O'zbekistan o'z istiqlolini qo'lga kiritgach, bu hududda istiqomat qilayotgan boltiqbo'yiliklarning hayotida yangi sahifa ochildi. Bu borada mamlakatda millatlararo totuvlik masalasida yaratilgan munosib sharoitdan unumli foydalanilib, 1992-yildan Toshkent Litva jamiyati markazi o'z faolitini yo'lga qo'ydi. Biroq tadqiqotlardan shuni ham bilish lozimki, 1991-yildan boshlab ko'plab boltiqbo'yiliklarning nafaqat O'zbekistondagi qismi, balki butun sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlardagi vakillarining tarixiy vatani Latviya, Litva, Estoniyaga qaytish jarayoni yuz berdi. Bu, albatta, tabiiy jarayon hisoblanadi.

Shularni inobatga olgan holda statistik ma'lumotlardan 2013-yilga kelib O'zbekistonda 1 097 nafar litvalik, 517 nafar latviyalik, 312 nafar estoniyalik istiqomat qilayotgani ma'lum bo'ldi.

Boltiqbo'yiliklarning hayoti va shakllangan diasporasi haqida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi tomonidan asossiz ravishda xalqlarni tarixiy vatanidan ko'chirish siyosati olib borildi. Rossiya imperiyasining xalqlarni ko'chirishdagi dastlabki maqsadi harbiy-siyosiy jarayonlar bo'lsa, XX asr boshiga kelib o'lkadigi ijtimoiy-siyosiy holatlar sabab bo'la bordi. Bu davrda ko'plab xalqlar kabi boltiqbo'yiliklar ham O'zbekiston hududiga majburiy ko'chirib keltirildi. Biroq, sobiq imperiya ularning ijtimoiy hayoti va kundalik faoliyatlari uchun muhim bo'lgan masalalarni hal qilishga yetarli darajada e'tibor bermadi. O'zbek xalqining bag'rikengligi natijasida o'lkaga ko'chib kelgan boltiqbo'yiliklar bilan yaqin munosabat o'rnatish yo'li tutildi. Bu hududlarda yashovchi boltiqbo'yiliklar mintaqaning iqtisodiyoti va sanoati rivojlanishida o'z hissalarini qo'shdilar.

O'zbekiston va Boltiqbo'yi davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yangi

qiyofada mustahkamlanishi, an'anaviy do'stlik munosabatlariga asoslandi. Ushbu jarayonda mamlakatlardagi xalqlarning shakllangan diasporalari muhim o'rin tutib, "xalq diplomatiyasi" asosida xalqlarning bir-biriga intiluvini hamda davlatlararo aloqalarning mustahkamlanishini ta'minladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Великая сила – дружбы народов. – Ташкент, 1989.
2. Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. – Москва, 1991.
3. Горхунова А.В Миграционные процессы в республиках Прибалтики в XX веке: Дис....канд.ист.наук. – М., 2004.
4. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенлик. – Тошкент, 2007.
5. Материалы переписей 1920 года. Перепись населения в Туркестанской Республике. Часть I, поселенные итоги. Выпуск III. Поселенные итоги Сыр-Дарьинской области. – Ташкент: Издания ЦСУ Туркеспублики, 1923 . – С. 60 – 61.
6. Муллажонов И.Р. Ўзбекистон аҳолиси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
7. Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Ташкент, 2000.
8. Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги. – Тошкент, 1987.
9. Устав Туркестанского Римско-Католического Благотворительного общества. –Ташкент, 1907.
10. Фозилхўжаев Қ. Фарзандларни Ўзбекистон бағрига олди. – Тошкент, 1989.
11. Ўз Р МДА. Фонд- И-269, 1-рўйхат, 1240-йиғма жилд. 40 – 43- варақлар.
12. Ўз Р МДА. Фонд-269, 2-рўйхат, 1240-йиғма жилд. 71-варақ.
13. Ўз Р МДА. Фонд-17, 1-рўйхат, 120-йиғма жилд. 2-варақ.
14. Ўз Р МДА. Фонд-17, 1-рўйхат, 168-йиғма жилд. 33-варақ.
15. Ўз Р МДА. Фонд-36, 1-рўйхат, 6898-йиғма жилд. 45-варақ.

16. Ўз Р МДА. Фонд-19, 3-рўйхат, 51-йиғма жилд. 57-варақ.
17. Ўз Р МДА. 43-фонд.
18. Ўз Р МДА. Фонд-86. 1-рўйхат, 7328-йиғма жилд. 44-варақ.
19. Ўз Р МДА. Фонд-314. 1-рўйхат, 82-йиғма жилд. 74-иш, 9-варақ.
20. Ўз Р МДА. Фонд-314. 1-рўйхат, 111-йиғма жилд. 42-варақ.
21. Ўз Р МДА. Фонд-314. 1-рўйхат, 84-йиғма жилд. 25-варақ.
22. Ўз Р МДА. Фонд-314. 1-рўйхат, 87-йиғма жилд. 25-варақ.
23. Ўз Р МДА. Фонд-314. 1-рўйхат, 160-йиғма жилд. 8-варақ.
24. Ўз Р МДА. Фонд. Р-31, 3-рўйхат. 29-йиғма жилд. 28 – 36 - варақлар.
25. Экономика и жизнь. – Ташкент, 1972 г. – № 8.